

Vatan yagonadir,
Vatan Bittadir!

Tong Yulduzi



2014-yil 20-yanvar
N:3 (66960)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

KAMALAK yulduzlari

AYJAMAL

Ismi jismiga monand, milliy liboslari o'ziga yarashib turgan bu tengdoshingiz qoraqalpoq elining farzandi. Oraliq masofa uzoq bo'lsa-da, ko'ngil yaqin bo'lsin ekan, Ayjamal gazetamizning eng faol yosh muxbirlaridan.

(Davomi 3-betda)




O.ORIPOV olgan surat

Ushbu sonda:



**SAN'ATKORGA
HAVAS QILIB...**

4-bet



**SADOQATLI
DO'ST**

6-bet

**UCHAR
KITOBLAR**



8-bet



MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI!

Vatan posbonlari deganda, ko'zlari chaqnaq turgan mard o'g'lonlar qiyofasi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bepoyon yurtimizning sarhadlarini qo'riqlash qalbida Vatan tuyg'usi bor har bir inson uchun muqaddas burchdir.

Kuni kecha O'zbekiston tarixi Davlat muzeyiga ana shunday mardi maydon yigitlar jam bo'lishdi. Bu yerda Yunusobod tuman Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi tuman Kengashi, Madaniyat va sport ishlari Yunusobod tuman bo'limi hamkorligida «Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!» shiori ostida uch avlod uchrashuvi o'tkazildi. Tadbirida so'zga chiqqanlar ona Vatanimizni qo'riqlash har birimizning insoniy burchimiz ekanligini ta'kidlashdi. Yig'ilganlar O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov hamda shoir Axtamqul Karimovning Vatan, tinchlik, muhabbat mavzuidagi she'r-u g'azallarini zo'r ishtiyoq bilan tinglashdi. Milliy xavfsizlik xizmati chegara qo'shinlari ashula va raqs ansambli, «O'zbeknavo» estrada birlashmasi, «Dolina» estrada guruhi hamda Hamid Olimjon nomidagi madaniyat uyi san'atkorlari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar tadbirga o'zgacha fayz kiritdi.



E'tibor berganmisiz, yosh bolalar kasb tanlash borasida anchagina beqaror bo'lishadi. Ular balog'at yoshiga yetgunlariga qadar bir qancha kasblar egasi bo'lishni orzu qiladilar.

Toshkent davlat sirki binosida 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlab o'tkazilgan «Vatanning mard o'g'lonlarimiz» nomli bayram tadbirida tomoshabin sifatida ishtirok etgan yuzlab bolajonlar kelajakda yurt posboni bo'lishni orzu qilgan bo'lsalar, ajab emas.

Negaki, bayramdagi harbiy litsey o'quvchilari, Milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan askarlarning chiqishlari barchaning qalbini faxr va iftixor tuyg'ulariga burkadi. Ko'zlari sevinchdan porlab turgan bolajonlar esa bayram tadbiridan olam-olam taassurot oldilar.

O'z muxbirlarimiz

MAZMUNLI UCHRASHUV

Vatan himoyachilari kuni arafasida maktabimizning yuqori sinf o'quvchilaridan 40 nafari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismlarida o'tkazilayotgan «Ochiq eshiklar kuni» tadbirida ishtirok etishdi. Ularni harbiy qismda bir guruh askarlar, serjantlar va zobitlar kutib olishdi.

O'quvchilarga harbiy xizmatni o'tashga doir ma'lumotlar berishdi. So'ngra, ularni harbiy qismning saf maydoniga taklif qilishdi. Askarlar-ning aytishicha, bu yerda qanchadan qancha harbiylar, generallar saf tortib turishgan, shuning uchun bu maydonni muqaddas deb bilishar ekan.

Harbiylarning maxsus kiyimlaridan tortib, mashq maydonidagi harakatlari gacha katta qiziqish bilan tomosha qilgan o'quvchilar ularni o'zlarini qiziqtirgan savollarga «ko'mib tashlashdi». Ulg'aygach, harbiy xizmatga kelib, Vatan uchun sidqidildan xizmat qilishni niyat qilib, bir guruh askarlar bilan esdalik uchun suratga tushishdi.

G'ayrat ASHUROV, poytaxtimizdagi 322-maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

YURTIMNING URAGI



Askar! Bu so'zni eshitganimizda, xalqimizning ishonchini qozongan sog'lom, baquvvat, o'ktam o'g'lonlar – yurt himoyachilari ko'z oldimizda gavdalanadi.

Shu yurtda tug'ilib, ona Vatani uchun xizmat qilishni orzu qilgan har bir o'g'lon o'z maqsadiga, albatta, erishadi. Buning uchun ularda qat'iyat va matonat bo'lsa, bo'lgani.

Harbiy xizmat hayot maktabi. U har qanday yigitni lochindek shunqor, yo'lbarsdek jasur qilib tarbiyalaydi. U yerda erkalik, dangasalik kabi illatlarga chek qo'yiladi, deyдилar bobom. Kuni kecha Vatan himoyachilari kunini keng tantana qildik. Bayram munosabati bilan oynayi jahon orqali namoyish etilgan ko'rsatuvlarda qadamlaridan o't chaqnayotgan, zabardast askar akalarimizni ko'rib, bu so'zlarning nechog'li to'g'ri ekanligiga amin bo'lmoqdamiz.

Askarlar yurtimizning yuragi, xalqimizning ertangi kuniga umidi, orzu-istaklari himoyachilari hisoblanadi.

Bizga omonlik tilaydigan askar akalarimiz doimo omon bo'lishsin.

Malikabonu TOLLIBOYEVA, SamDU qoshidagi 1-akademik litseyining 1-bosqich o'quvchisi

SAMARQANDGA SAYOHAT

Tezyurar poyezdda sayr-u sayohatga chiqishni kim ham xohlamaydi, deysiz?! Ayniqsa, bolajonlar bundan o'zgacha taassurot olishadi. Qishki ta'til kunlari o'g'il-qizlarga quvonch ulashish maqsadida «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi tomonidan «Ona Vatan tarixi» shiori ostida Samarqand shahriga sayohat uyushtirildi.

Toshkent shahridagi 22-, 23- va 30- hamda Toshkent viloyatidagi 14- va 15-Mehribonlik uylarining, jami yuz nafar tarbiyalanuvchilari sayohat davomida Registon maydoni, Samarqand tarixi muzeyi,

Go'ri Amir maqbarasi bilan tanishdilar. Bu tadbirning ko'ngildagidek o'tishi uchun O'zbekiston temiryo'llari DAK hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi xodimlari sidqidildan xizmat qildilar. O'quvchilar qalbida Vatanga muhabbat, buyuk bobolarimizdan qolgan merosimiz bilan g'ururlanish tuyg'ularini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan ushbu sayohat bolajonlarning mazmunli va madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minladi. Ular ko'ngli shodlikka to'ldi, olam esa mehr-muruvvatdan yanada nurafshon bo'ldi.

S. QODIROVA



(Boshi 1-beta)

AYJAMAL

Ayjamal nafaqat «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida, balki «Gulxan», «G'uncha» kabi jurnallarda ham o'z ijod namunalari bilan muntazam qatnashib keladi. O'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan biror tanlov, tadbir yoki kecha yo'qki, Ayjamal ishtirok etmagan bo'lsa. Ularning aksariyatida g'oliblikni qo'lga kiritib, ustozlari, ota-onasi ishonchini oqlab kelmoqda.

O'tgan 2013-yilimiz ham Ayjamalning hayotida unutilmas iz qoldirdi. Tuman miqyosida o'tkazilgan «Fan olimpiadasi»da qoraqalpoq tili va adabiyoti fanidan muvaffaqiyatli qatnashib, Nukus shahri bosqichiga yo'llanma oldi. «Jetkinshek» gazetasi tahririyati tomonidan o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi hikoyasi muallifi», «Makonimizning ajoyib odamlari» nomli tanlovlarda ham g'oliblikni qo'lga kiritdi. «O'zbekistonning yetti ajoyiboti» tanlovining Nukus shahri bosqichida ham, «Konstitutsiya – baxtimiz negizi» tanlovining tuman bosqichida ham 1-o'rin shu iqtidorli, intiluvchan qizimizga nasib etdi.

Uning Vatan, Tinchlik, Istiqloq tarannumiga bag'ishlangan ijodiy ishlari «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» Respublika ijodiy ishlar ko'rik-tanlovida oliy o'ringa munosib topildi.

Yaqinda bo'lib o'tgan «Kamalak yulduzlari» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida «F» yo'nalishi bo'yicha laureat bo'ldi.

– Deyarli barcha tanlov va bellashuvlarda ishtirok etarkansiz. Yana maktabdagi o'qishlaringiz ham a'lo ekan. Barchasiga qanday ulgurasisiz? – savolga tutamiz Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Ayjamal Karamatdinovani.

– Insonda xohish, ishtiyiq bo'lsa, barchasiga ulgurish mumkin, – deydi iqtidorli tengdoshingiz ishonch bilan.

Biz esa uning kamtarona javobiga, bilim ham, deya qo'shimcha qildik.

SIZ NIMA DEYSIZ?

Jonajon diyorumizda biz yoshlarning puxta bilim olishimiz, iqtidor va salohiyatimizni yuzaga chiqarishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalanayotgan ilmga chanqoq, intiluvchan tengdoshlarimiz ilmiy fan, san'at va sport sohalarini mukammal egallab, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda.

Ammo «Guruch kurmaksiz bo'lmaydi», deganlaridek, hozirgi kunda yoshlarimiz orasida bilib bilmay turli qing'ir yo'llarga kirib qolayotgan, chekishga, ichkilikka ruju qo'yayotganlari ham uchrab turadi. Nahotki, ular guldek yoshlik davrini ana shu illatlar xazon qilishini tushunishmasa?! Bunday kishilar to'g'risida

Alisher Navoiy bobomiz quyidagicha fikr bildirganlar: «Ular or-nomus, urf-odat va mulozamatlarni unutadi, rahm-shafqat degan tushunchalardan uzoqlashib ketadi, parishonxotir, nafosatsiz, didsiz bir maxluqqa aylanib qoladi».

Ha, ichkilikka ruju qo'yish, kashandalik kabi illatlar inson salomatligi uchun nihoyatda zararli sanaladi. Bu illat tufayli oila, demakki, jamiyat zarar ko'radi. Nogiron farzandlar dunyoga keladi. Bunday nojo'ya illatlarga qarshi kurashish o'zimizning qo'limizda. Shuning uchun doimo hayotga ogohlik, hushyorlik va teran nigoh bilan boqaylik. Keling, hayot deb atalmish buyuk ne'matni bedavo dard-u jirkanch illatlar bilan bulg'amaylik.

Sitora ABDURASULOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi
12-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi

SOG'LOM O'SSAK...

Mana, quvonch-u shodliklar bilan kutib olgan yangi yilimizning uchinchi haftasini ham boshlab yubordik. Qishki ta'til taassurotlari, bayram tomoshalarini ancha paytgacha yodimizdan chiqmaydi. Qor ham niyatimizga yarasha yog'di. Qorbo'ronlar o'ynab, Qorbobolar yasab, chanalar uchib chiniqdik, qish zavqini totdik.

Endi esa navbat o'qishga!

Viloyatimizda biz bolalarning har tomonlama sog'lom o'sishimiz, sport bilan muntazam shug'ullanishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, o'tgan 2013-yilda viloyat madaniyat va sport ishlari tizimida biz uchun oltita bolalar sport maydonchasi barpo etildi. O'ndan ziyod sport

GO'YO SAN'AT ASARI

Tengdoshlarimning ko'pdan buyon meni o'ylantirib kelayotgan mavzuga doir fikrlarini bilish maqsadida bugun yana sevimli gazetamga maktub yo'lladim. Ifixtor ramzi bo'lmish milliy valyutamizga turli so'zlar yozilganini ko'rib, ba'zan o'ylab qolasan, kishi. Shaxsan men buyuk bobomiz Amir Temur siyosati, davlatimiz gerbi aks ettirilgan milliy valyutamizni san'at asariga qiyoslayman. Unga qaraganimda, qalbimda faxr tuyg'usini his etaman, uni asrab-avaylashga harakat qilaman. Axir pul oddiy qog'oz emas, uni tayyorlash juda mushkul ish. Qadimda pullar o'rnida turli buyumlardan, jonivorlar terisidan, qimmatbaho toshlardan foydalanilganini yaxshi bilamiz. Bugun esa hamyonbor, yorqin ranglardagi milliy valyuta – so'mimizga egamiz. Uning qadriga yetishimiz lozim, shunday emasmi?

Shodiya begim SHAROFIY,
Jizzax davlat pedagogika instituti qoshidagi
«Sayiljoy» akademik litsey o'quvchisi

QURUVCHILAR SOVG'ASI

Yangi – 2014-yil Quva tumanining So'fi mahallasida yashovchi san'atsevar o'quvchilar uchun xayriy boshlandi. Ular quruvchilardan ajoyib sovg'a oldilar.

– Mashg'ulotlarni ikki qavatli zamonaviy loyiha asosida qad rostlagan ko'rkam binoda boshladik, – deydi 13-bolalar musiqa va san'at maktabi direktori Shahnoza RAHIMOVA. – Ta'lim maskanimizda 200 o'rinli konsert zali yangitdan qurildi. Fortepiano, o'zbek xalq cholg'ulari, an'anaviy ijro, zarbli cholg'ular, amaliy va tasviriy san'at, xo'r kabi olti yo'nalishda tahsil olayotgan 151 nafar o'quvchiga 29 ta mutaxassis o'qituvchilar saboq berishmoqda.

Bunday ko'rkam, muhtasham binoda tahsil olayotgan san'atsevar o'quvchilarimiz ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarga munosib bo'lish uchun tinmay izlanadilar, musiqa sirlarini puxta egallab, o'zbek san'atini dunyoga tanitadilar, degan umiddamiz.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati



majmualari ham sportsevar bolajonlarga muntazir. Axir «Sog'lom tonda – sog'lom aql» degan naql bejizga aytilmagan-ku.

Sog'lom bo'lib o'ssak, kelajakda ota-onamiz orzu qilgandek, yurt koriga yaraydigan komil inson bo'lamiz.

Mohinur ISOQJONOVA,
Buxoro viloyati,
Shofirkon tumanidagi
4-umumta'lim
maktabining
5-sinf o'quvchisi

YULDUZXONNING YORZUSI

Yurtimizda bolaligidanoq o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, unga erishish yo'lida dadil odimlayotgan o'g'il-qizlar juda ko'p. Ana shunday iqtidorli qizlarimizdan biri Yulduzxon Mahkamova Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 37-maktabning 7-sinfida o'qiydi. U barcha fanlarni puxta o'zlashtirishga intiladi. Ayniqsa, botanika, zoologiya fanlariga qiziqishi katta. Ushbu fanlar bo'yicha olgan bilimlarini o'tgan yili «Bilimlar bellashuvi»da sinovdan o'tkazdi.

Tirishqoq, izlanuvchan Yulduzxon bo'sh vaqtini ham unumli, mazmunli o'tkazishga harakat qiladi. Xorijiy tillarni o'rganadi, badiiy kitoblarni o'qiydi, sportning voleybol turi bilan muntazam shug'ullanadi.



ZULFIYA olgan surat

Uning ko'pchilik tengdoshlari havas qiladigan yana bir jihati bor: adabiyot, she'riyat shaydosi. Bolalarcha samimiyatga yo'g'rilgan she'rilarida jannatmakon diyorimiz madhi, Istiqlol yillarida yurtimizda bo'layotgan ulkan o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari tarannum etiladi. Uning ijodida bag'ishlovlarni ham alohida o'rin tutadi. Dadasi, onasi, ustozlari, akalariga bo'lgan mehrini, hurmat-ehtiromini ularga bag'ishlangan she'rleri orqali izhor etadi.

– Kelajakda qanday kasb egasi bo'lmoqchisan? – so'raymiz Yulduzxondan.

– Shifokor bo'lmoqchiman, – deydi u va yana, – ijodkor shifokor, – deya qo'shimcha qiladi.

Biz ham bu ijodkor qizimizning qalbidek o'qok, pok niyatlarini ijobatiga tilakdosh bo'lib qolamiz.

Komila TURG'UNOVA,
Toshkent bank kolleji o'qituvchisi

MENING IKKI AKAM BOR...



*Mening ikki akam bor,
Xo'p kelishgan, basavlat.
Qalbi toza, mehribon,
Borligi bizga davlat.*

*Sog'lom, baquvvat o'sib,
Kuch-quvvatga to'lishsin.
Kindik qoni to'kilgan,
Yurtga posbon bo'lishsin!*

*Dadamga ikki qanot,
Biz suyangan bog'imiz.
Oilamiz qo'rg'oni,
Tayanchimiz – tog'imiz.*

*Onajonim tilagi:
«El g'amini yeyishsin.
Odamlar havas bilan:
«Balli, o'g'lon!» deyishsin.*

*Dadam qo'li duoda:
«Omon bo'lishsin doim.
Ajdodlarga munosib
Farzand bo'lsin, iloyim.*

*Men ham ular yonida,
Xizmatga shay turayin.
Akajonlarim bilan
Faxrlanib yurayin.*

Yulduz MAHKAMOVA


Tadbir

YASHIL CHIROQ

Jizzax tumanidagi 1-umumta'lim maktabida harakat xavfsizligi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, maxsus ajratilgan xonada yo'l belgilari jamlanmasi, atributlar, tarqatma material va turli-tuman rasmlardan foydalangan holda o'tkazilayotgan saboqlar tufayli o'quvchilar ko'cha harakati qoidalarini puxta o'zlashtirishmoqda. Xalq ta'limi a'lochisi Dilorom opa Ko'chimova boshchiligidagi o'tgan «Yashil chiroq» mavzuidagi mashg'ulotda 6-«A» sinf o'quvchilari «chorraha», «ko'cha», «svetofor» kabi terminlardan o'rinni foydalanib, savol-javoblarda faol ishtirok etishdi.

O'quv maskani yaqinida avtotransportlar serqatnov bo'lganligi bois, tuman ichki ishlar bo'limiga qarashli yo'l-patrul xizmati inspektori, serjant Yunus To'rayev boshchiligidagi yuqori sinf o'quvchilari kichikintoylarning yo'llardan o'tishlariga ko'maklashmoqdalar. O'quvchilar o'rtasida tez-tez o'tkazib turiladigan suhbatlarda «Gandumtosh» mahalla faollari hamda ota-onalar ham ishtirok etishmoqda.

«Harakat xavfsizligi oyli»ga bag'ishlab «Diqqat, bolalar!», «Yo'lingiz bexatar bo'lsin!», «Yashil chiroq» kabi stendlar, devoriy gazetalarni tayyorlashda ham ota-onalar o'z hissarini qo'shishmoqda.



Yaqinda o'quvchilar o'rtasida harakat xavfsizligiga oid yakuniy tanlov o'tkazilib, unda 4-«A», 8-«A», 9-«A» sinf o'quvchilari faxrli o'rinlarni egallashdi. Sevinch Odilova, Musharraf Qurbonova, Behzod Abdurahmonov kabi o'quvchilar esa harakat xavfsizligiga oid yetarli bilimlarga ega ekanliklarini namoyish etishdi.

Feruz Abdullayeva,
Jizzax viloyati

Maktabda uchrashuv



SAN'ATKORGA HAVAS QILIB...

Biz kulgisevar xalqmiz. Kulgi insonlarga zavq-u shavq, ko'tarinki kayfiyat ulashibgina qolmay, umrni uzaytirishini ham yaxshi bilamiz. Shundanmi, keksa-yu yosh xanda, latifa, ichakuzdi hangomalar shaydosimiz.

Poytaxtimizning Hamza tumanidagi 198-maktab o'quvchilari ham mohir so'z ustasi Valijon Shamsiyev bilan ijodiy uchrashuv bo'lishi haqidagi xushxabarni eshitib, behad quvonishdi. Bu tadbir haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Valijon aka o'quvchilarga bolalik xotiralaridan so'zladi. Olti yoshidan maktabga chiqib, o'zidan ikki yosh katta bolalar bilan birga o'qigan bo'lsa-da, bilimi, salohiyati tufayli sinf sardori etib tayinlashgani, maktabni oltin medal bilan tamomlagani haqidagi hikoyalarni yig'ilganlar katta qiziqish bilan tingladilar. Navbat uchrashuvning eng qizg'in pallasi – savol-javoblarga keldi. Mehmonga birinchi savolni maktabning rus tili fani o'qituvchisi Dilfuza To'xtaxo'jayeva berdi:

– Insonlardagi qanday fazilatlarni qadrlaysiz?
– Mehnatsevarlikni, to'g'riso'zlikni qadrlayman.

So'ngra, bolajonlarning biri-biridan qiziqarli, kutilmagana savollari yog'ildi:

– Bolaligingizda nimani orzu qilgansiz?

– Katta bo'lishni...

– San'atkor bo'lmaganingizda, qaysi kasbni tanlagan bo'lardingiz?

– San'atkor bo'lmaganimda, san'atkor bo'lardim... yoki o'qituvchi, sportchi, har qalay, biror kasb egasi bo'lardim...

Valijon aka bolajonlarning savollariga xushchaqchaqlik bilan samimiy javob berdi. Hangomalar aytib, yig'ilganlarga xushkayfiyat ulashdi: O'quvchilar mehmon bilan esdalik uchun suratga tushishdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Barno Isaxonova tashkillashtirgan bu ijodiy uchrashuv o'quvchilarda iliq taassurot qoldirdi.

Bola ulg'aygani sari atrofidagi yaxshi odamlardan andoza olishga harakat qiladi. Shoyad, xalqimizning sevimli san'atkori Valijon Shamsiyevga havas qilib, mazkur bilim dargohi o'quvchilari orasidan ham mohir so'z ustalari, ajoyib san'atkorlar yetishib chiqsa. Zero, bunday ijodiy uchrashuvlarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad ham shu!

Muzaffar AHMEDOV

LEARN THE RHYME

One, two, three, four,
The cat is sitting by the door.



Five, six, seven, eight,
The cat is eating from the plate.



Nine, ten, nine, ten,
The cat is sleeping by the fan.

PICTURE TALK

Rasmdagi so'zlarning birinchi harflarini topib bog'lang va yangi so'z hosil qiling.



Risolat ISMOILOVA

CROSSWORD ABOUT PROFESSIONS

(KASBLAR HAQIDA KROSSVORD)

1. 2. 3. 4. 5. 6. 7. 8.

Eniga:
1. Rassom.
3. Oshpaz.
4. Haydovchi.
6. O'qituvchi.
7. Muhandis.

Bo'yiga:
2. Qassob.
3. Qo'shiqchi.
4. Shifokor.
5. Muxbir.
8. Ishchi.

Tuzuvchi: Malika MATNAZAROVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahri

Bolajonlar! Sinfingizdagi anjomlar, o'quv qurollaringizning inglizcha nomlarini bilishni xohlaysizmi? Albatta, deysizmi? Unda quyidagi so'zlarni daftaringizga yozib, ularni yod oling.



THE CLASSROOM

(Sinf xona)

- A desk - parta
- A teacher's desk - o'qituvchi stoli
- A seat/ chair - stul
- A pen - ruchka
- A pencil - qalam
- An eraser - 1) o'chirg'ich
2) doska o'chiruvchi mato
- A ruler - chizg'ich
- A book/ textbook - kitob/ darslik
- A notebook - daftar
- A notebook paper - daftar varag'i
- A blackboard - doska (sinf taxtasi)
- A chalk - bo'r
- A map - xarita
- A globe - globus
- A calculator - kalkulyator (hisoblagich)
- A clock - soat
- A flag - bayroq
- A bookshelf - kitob javoni.

Shahnoza KARIMOVA

FUNNY TEST

(QUVNOQ TEST)

1. There ... many birds in the tree.
a) are; b) is.

2. There ... a big mirror in the bedroom.
a) is; b) are.

3. There ... much milk in the glass.
a) are; b) is.

4. What time is it now?
It is 9.30.
a) half past nine;
b) half past ten;
c) half past twelve.

5. What time is it?
It is 6.25.
a) twenty five minutes to six;
b) twenty five minutes past seven;
c) twenty five minutes past six.

Gulnora TOSHQULOVA,
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 7-maktab o'quvchisi
Sahifani Toshkent bank kollejining tillar kafedrası mudiri Karima SHAYXOVA tayyorladi



BOLAQALB SHOIR

Bolalar uchun yozish oson ish emas. Murakkabligi shundaki, adib sodda, ravon tilda yozishi, bolalarning holatiga kira olishi, kichikintoylar qalbini hayajonga soladigan, ularga zavq bag'ishlaydigan mavzularni topa bilishi, sho'x, o'ynoqi fikrlarni qisqa, lo'nda tarzda ifodalay olishi lozim. Ana shu vazifalarni uddalay olsagina, bolalar uni o'z ijodkori sifatida tan oladilar, asarlarini sevib o'qiydilar.

Samarqandlik shoir **Yaxshimurod DAVRON** yuqoridagi vazifalarni a'lo darajada uddalab, bolajonlar qalbidan joy olib kelayotgan ijodkorlardan biri. Uning «Farishta bilan suhbat», «Zuhriddin va Noila», «Xushnudjonning orzusi» nomli to'plamlari yosh kitobxonlarning kitob javonlaridan munosib o'rin egallagan.

Zavqli shoirimizning quyidagi ijod namunalari siz ham zavq bilan o'qiydilar, degan umiddamiz.



QISHDA KIM GUL CHIZADI?

— *Dada, dorazamizga
Qishda kim gul chizadi?
Naga tunda u shirin,
Uyqusini buzadi?!*

— *Bu Ayozbobo ishi,
U dalada qishlaydi.
Dam olmasdan uch oy qish,
Kecha-kunduz ishlaydi.*

*U siz bolajonlarning,
O'tkir zahningiz sezib,
Rassomlikdan dars berar,
Dorazaga gul chizib.*

SAYRDA

*Dala, bog'lar ajib, zushhavo,
Novaram-la chiqdik sayrga.
Qor yog'ishin kuzaldik xushhol,
Kapalakdek qo'nardi yerga.*

— *Bobo, — dedi Elbek hayratda,
— Kim yog'dirar osmondan qornis?
— Osmondami, Qorbobo yashar,
Saxiy yerga u elar «zarni».*

*Ona zamin sovqotmasin, deb
Qor ko'ziga o'rar, g'amini yeb.*



QANDAY QARAY?

*Mehmonga bordik kacha,
Etkin ancha kach qaydik.
Qorong'i edi kacha,
Yo'lni biroz yo'qoldik.*

*O'g'limga dedim shu payt:
— Sekin, ko'zga qarab yur.
— Ko'zim azir o'zimdada,
Unga qanday qaray? — der.*

SADOQATLI DO'ST

(Hikoya)

Yozning issiq oqshomlaridan birida Elyor akasi Eldor bilan dadasining o'miga daladagi qovunlarini qo'riqlash maqsadida yo'lga tushishdi. Biroz tobi yo'qligi sabab Odiljon aka tungi qorovullikka o'g'illarini yuborgandi. Aka-ukalar qishloq chetidagi qovunzorlariga borib, allamahalgacha dalani aylanib yurishdi. So'ng, xodalardan omonatgina qurilgan, chor atrofi qamishlar bilan to'silgan kapa ichiga kirib, eshikni ichkaridan berkitib, uyquga ketishdi. Allamahalda Eldor eshikni timalab, g'inshiyotgan itining ovozidan uyg'onib ketdi va ukasini turtib, shunday dedi:

— Tur, Elyor, Qoplon keldi.

Eldor eshikni ochgan zahoti Qoplon tezlik bilan yugurib kapaga kirdi va shiftga qarab uvillay boshladi. Aka-ukalar hayron bo'lib, bir-biriga qarashdi. Eldor ukasiga so'z qotdi:

— Qoplon nimadandir bezovta, ishqilib, uyda tinchlikmikin?

Ukasi ham xavotir aralash javob berdi:

— Men ham hayronman, dadam va ayamga biror kor-hol bo'lmadimikin?

Shu payt it o'zini ochiq turgan kapa eshigiga urib, tashqariga chiqdi-da, qishloq tarafga qarab chopib ketdi. Aka-ukalar ham uning ortidan uylari tomon yugurdilar. Ular uyga yetib kelishgach, darvozaga old panjalarini «tap-tap» etib urayotgan Qoplon ikki uy naridagi xonadonga kelin bo'lgan opalarinikiga pastak devordan oshib tushib, u hovlida ham vovillay boshladi. Shu payt

darvoza ochilib, Odiljon aka ko'rindi va unga hayron bo'lib qarayotgan o'g'illariga dedi:

— Keldingizmi, bolalarim? Qoplon yarim kechasi bezovtalanib, hovlimiz o'rtasida ancha uvilladi, uyimiz eshigini rosa timaladi. Eshikni ochsam, darvoza ostidan chiqib, vovillagancha chopib ketdi.

— Itimiz bizning oldimizga ham borib, xuddi shunaqa harakatlar qildi. Xavotir olib, ortidan chopib kelaverdik, — dedi Eldor halloslagancha.

Bu paytda qo'shni xonadonga kelin bo'lgan opalari ikki yashar qizchasi, turmush o'rtog'i bilan birga hovliga kirib keldi. Boshqa qo'shnilar ham itning qattiq ovozidan bezovta bo'lib, bola-chaqalari bilan birga tashqariga chiqishdi. Endi Qoplon ko'cha o'rtasida turgan bir to'p odamlarning atrofida gir-gir aylana boshladi. It bu bilan go'yoki: «Uylaringga kirmanglar, xavf bor», deyayotgandek edi. Shu payt qattiq yer silkindi, mahalladagi bir necha hovlilarning tomi bosib qoldi. Odamlar yerga o'tirib olishdi. Haytovur zilzila qayta takrorlanmadi. Bir-ikki soatdan keyin odamlar o'zlariga shikast yetmaganiga shukur qilib, uy-uyariga tarqalishdi. Shu tariqa oddiy bir itning sezgirligi, sadoqati tufayli qishloq ahliga ziyon-zahmat yetmadi. Ertasi kuni dalaga borgan Odil aka va o'g'illari o'zlariga qapa yer bilan bitta bo'lib ketganining guvohi bo'lishdi. Odil aka yerga qarab, xafa bo'lib turgan o'g'illariga shunday dedi:

— Ranjimanglar, axir jonimiz omon qoldi-ku, salomat bo'lsak, kapaning o'miga chiroyli dala shiyponi qurib olamiz. It odamning eng yaqin do'sti, deb ota-bobolarimiz bejiz aytishmagan ekanlar-a?!

Gulyoraxon MAHKAMOVA,
Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi
2-IDUMning 8-sinf o'quvchisi



QO'LIM CHO'ZSAM, OYGA YETARDI


*Bolaligim, sening bag'ringda,
Sho'xliklarim oshib ketardi.
Orzularim edi bir jahon,
Qo'lim cho'zsam, Oyga yetardi.*

*Endi faqat eslayman seni,
Suratlarni qo'ldan qo'ymayman.
Zavqli, shirin xotiralarni,
Eslayman-u, aslo to'ymayman.*

*Buvijonim aytdi ertaklar,
Qulog'imdan ketmas hali ham.
Ortda qolgan o'sha damlarni,
Qo'msayman-u, yuragimda g'am.*

*Oltin davrim, seni sog'indim,
Endi seni topolmayman men.
Xotiralar ila ovundim,
Oqar suvdek oqib ketding sen.*

Mohinur ISROILOVA,
Navoiy viloyati,
Qiziltepa tumanidagi
9-maktabning 8-sinf o'quvchisi



KELAJAKKA MUHIM POYDEVOR

2014-yil - Sog'lom bola yili

Tahririyatimizga jizzaxlik yoshlardan ko'plab maktublar keladi. Ular o'z dilmolari orqali bugun yurtimizda yoshlarning ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan benihoya mamnun ekanliklarini izhor etishadi. Shuningdek, bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda ko'plab muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritayotganliklari haqida ham faxrlanib yozishadi. Bugun arnasoylik yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ular qo'lga kiritayotgan yutuqlar haqida yozishga chog'landik.



Yurtimizda bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak e'tibor samarasini bugun yosh sportchilarimizning yirik xalqaro sport anjumanlarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari misolida ko'rib turibmiz. Quvonarlisi, bunday muvaffaqiyatlarga jizzaxlik sportchilar ham munosib hissasini qo'shib kelayotir.

Kuni kecha Arnasoy tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabining to'liq qayta rekonstruksiya qilinib, foydalanishga topshirilishi tumanlik yosh sportchilarga bir olam quvonch ulash-

di. Bu xayrli ishga O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1 milliard 751 million so'm mablag' sarflandi.

Quruvchilar inshootni rekonstruksiya qilish bilan birga, mavjud binoga qo'shimcha ravishda sport zali va boshqa yordamchi xonalar ham qurishdi. Natijada, yosh sportchilar o'z qiziqishlariga qarab sakkizta sport turi bo'yicha mashg'ulotlarda shug'ullanish imkoniga ega bo'ldilar.

- Sog'lom avlod deganda, yoshlarning jismonan va ma'nan barkamol bo'lib kamolga yetishi tushuniladi. Prezidentimiz tomonidan turmush tarzini targ'ib etishdan iborat.

Mirobod tumanidagi 213-umumta'lim maktabida futbol bo'yicha 5-9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan musobaqa ham o'quvchi-yoshlar o'rtasida sportni yanada ommalash-tirishga xizmat qiladi.

Poytaxtimizda «Umid nihollari» sport musobaqalarining 5-9-sinf o'quvchilari o'rtasidagi tuman bosqichlari davom etmoqda.

O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Toshkent shahar filiali tomonidan tashkil etilayotgan mazkur an'anaviy musobaqadan ko'zlangan maqsad, o'quvchi-yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ular o'rtasida sog'lom

Musobaqada tumandagi 16 ta umumta'lim maktablari jamoasi o'zaro bahslashdi. 213-maktab o'quvchilari birinchi, 110-maktab jamoasi ikkinchi va 147-umumta'lim maktabi yosh futbolchilari uchinchi o'rinni egalladi.



Shoh MUHAMMAD tayyorladi

dan joriy yilning «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi, yosh avlod salomatligiga yuksak darajada e'tibor qaratilayotganining yana bir yorqin namunasidir, - deydi maktab direktori Ravil Davidov.

Ushbu sport maktabi rekonstruksiya qilingunga qadar, bu yerda futbol, voleybol, stol tennisi, badiiy gimnastika, kurash to'garaklari faoliyat yuritgan bo'lsa, endilikda basketbol, dzyudo hamda boks seksiyalarida ham sportga ixlosmand yoshlar o'z mahoratlarini oshirish imkoniga ega bo'ldilar.

Quvonarlisi, maktab sportchilari erishayotgan yutuqlar ham yildan yilga yaxshilanib bormoqda. O'tgan 2013-yilda yosh sportchilar kurash, dzyudo, sambo hamda voleybol sport turlari

bo'yicha o'tkazilgan viloyat musobaqalarida 23 oltin, 6 kumush va 45 bronza medallarini qo'lga kiritgani quvonarlidir.

- Bir necha yildan buyon voleybol sport turi bilan shug'ullanaman. Ayni paytda mazkur maktabda malakali murabbiylar qo'l ostida ushbu sport turi sir-asrorlarini qunt bilan o'rganib kelmoqdaman. Bugunga qadar tuman va viloyat miqyosida o'tkazilgan ko'plab musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etdik. Kelajakda yurtimiz sharafini xalqaro musobaqalarda ham munosib himoya qilmoqchimiz, - deydi maktabning umidli sportchilaridan biri Muslima To'rayeva.

Sa'dullo TURSINOV



SHOVVOZ «SHAXMATCHILAR»

Abdulla bilan Ahmad,
O'ynar edilar shaxmat.
Taxta uzra qizir. «jang»,
Kuzatib men hang-u mang.
Ular g'oyat mamnun, shod,
Fil surib der biri: pot.
Ikkinchisi surib ot,
Baqirib der: «Bo'lding mot!»
Piyoda, ruh, ot va fil,
Farzin eng zo'r sipoh, bil.
Har birining bor yo'li,
Hammasi yurmas bir xil.
Sipohlarni shovvozlard,
Go'yo ko'zga ilmaskan.
Rostini aytсам, ular
Bu o'yinni bilmaskan.

JAVOHIRNING MUVAFFAQIYATI

Toshkent shahrida o'tgan tezkor shaxmat bo'yicha turnirda 13 yoshgacha bo'lgan 30 nafarga yaqin o'g'il-qiz o'zaro raqobatlashdi. Musobaqada to'qqiz imkoniyatdan sakkiz ochko jamg'argan mamlakatimiz va maktab o'quvchilari o'rtasida Osiyo chempioni Javohir Sindorov birinchi o'rinni egalladi.

Ochil TOHIR

Ona zamin ne'matlari

Aziz bolajonlar, sog'lik insonning eng katta boyligi ekanligini yaxshi bilasizlar-a? Bu bebaho ne'matni esa bolalikdanoq asrashimiz, mustahkamlab borishimiz lozim. «Sog'lom bola yili»da yanada sog'lom va bardam bo'lib yurishingiz uchun xalq tabobatida ota-bobolarimiz qo'llab kelgan shifobaxsh giyohlar haqida «Ona zamin ne'matlari» nomli yangi ruknimiz orqali ma'lumotlar berib borishni rejalashtirdik.

Shunday giyohlardan biri ziradir. Bu ko'p yillik o'tsimon o'simlikning bo'yi 30-60 sm. Oq rangdagi gullari 5-7 sm kattalikda bo'ladi. Iyun, iyul oylarida meva tugadi. Uncha baland bo'lmagan tog'larda hamda qizil tuproqda o'sadigan zira O'rta Osiyoda ko'p tarqalgan bo'lib, mevasidan xalq tabobatida surunkali oshqozon va jigar kasalliklarini davolashda foydalaniladi.

Tarkibida 2,75 - 3,0 foiz efir

moyi bo'lgan bu shifobaxsh giyoh urug'i, shuningdek, me'da-ichak kasalliklarida, ishtahani ochishda qo'llanilgan. Ibn Sino zirani yaxshilab yanchib, sirkada tayyorlangan damlamasini burun qonashiga qarshi buyurgan. Shifokorlar ozgina zira qaynatilib, og'iz bo'shliqlari artilsa, yallig'lanishlarga shifo bo'lishini ta'kidlashadi.

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi



Antiqua kutubxonalar



UCHAR KITOBLAR

Italiyaning Bari shahri janubida joylashgan Apuliya viloyatidagi aeroportda yangi kutubxona ochildi. Xohlovchilar o'zlari bilan kitoblarni olib uchishlari yoki restoran, kafelar, kutish zallarida sudrab yuruvchi javonlar xizmatidan foydalanishlari mumkin. Buning uchun pul to'lanmaydi. Kutubxonadan nafaqat ital-yancha, balki barcha tillardagi adabiyotlarni topish mumkin. Asosiysi, o'zaro ishonch. Kitoblarni o'zlar bilan olib uchgan yo'lovchilar o'qib bo'lgach, ularni pochta orqali qaytarib yuborishlari kerak.

TEMIRYO'LDAGI NURXONA

Dunyodagi eng antiqa kutubxonalaridan yana biri Mexikoning Buena-vista temiryo'l stansiyasida joylashgan. Yer osti yo'li bilan hisoblaganda, to'rt qavatdan iborat bo'lib, 580 ming kitob joylashtirilgan antiqa kutubxona yo'lovchilar ixtiyoriga topshirilgan. Xonalari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan nurxonada kompyuterda bepul internet xizmatlaridan foydalanish, bolalarga kompyuter o'yinlari o'ynashlari uchun alohida zal, multi-mediya, xorijiy tillarni o'rgatuvchi xona, teatr tomoshalarini namoyish etiladigan sahna, ko'rgazmalar zali mavjud. Shaharga uning atrofidan xizmatga qatnaydigan yo'lovchilar uchun temiryo'l kitob, jurnal va gazeta mutolaa qiladigan eng qulay maskanga aylangan.



Internet manbalari asosida Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi



QISH

Yalt-yalt etib mayda zarralar, Qamashtirib yuborar ko'zni. Burkanibdi borliq poklikka, Ta'rifiga topolman so'zni.

Hech bir joyda yo'qdir chang, g'ubor, O'rab turar olamni poklik. Toza havo, har yon beg'ubor, Tanamizga xush yoqar soflik.

Qorparchalar momiq parlardek, Ko'rinadi ko'zga g'aroyib.

Bu qandayin beg'ubor fasl,

Har yon go'zal, qanday ajoyib?!

Kumush qishning maftunidirman, Ta'rif yo'qdir go'zalligiga.

Shubha qilmam men bu fastning, Har fasldan o'zarligiga.

Mohigul MAHAMATUMAROVA, Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

peyzanda qizel!



GO'SHTLI SALAT

Kerakli masalliqlar:

200 gramm qaynatilgan mol go'shti, 2 dona pomidor, 2 dona bodring, 1 dona o'rtacha kattalikdagi olma, 1 dona qizil bulg'or qalampiri, 6 dona zaytun mevasi, 1 bog' ukrop (shivit), 2 osh qoshiqda mayonez, ta'bga ko'ra tuz, murch, achchiq sous.

Tayyorlanishi:

Qaynatilgan mol go'shti, bodring, olma va qizil bulg'or qalampiri somoncha shaklida to'g'raladi. 1 bog' ukroproni mayda to'g'rab, tuz, murch, 2 osh qoshiqda mayonez qo'shib, barcha masalliqlar aralashtiriladi. Lipopcha parrak qilib kesilgan pomidor bilan bezatilib, ustiga salat solinadi va zaytun donalari bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

«B» HARFIDAN BOSHLANADIGAN KROSSVORD

B							
B							
B							
B							
B							
B							
B							
B							

- Sayroqi qush.
- Mazasi yo'q.
- Farmon.
- Davlat ramzi.
- Qo'l qismi.
- Tarixiy shahar.
- Shodiyona kun.
- Qovurma jo'xori.

Tayyorladi: Farzulla ABDULLAYEV

Gazetamizning 52-sonida berilgan «YANGI YIL» KROSSVORDINING JAVOBLARI:

Diagonallar bo'yicha o'ngga: 1. Bola. 2. Chana. 3. Qorbo'ron. 6. Qarg'a. 15. Taqvim. Diagonallar bo'yicha chapga: 4. Qahraton. 16. Bayram. Eniga: 5. Tir. 21. Vals. Bo'yiga: 3. Alyor. 6. Qorbobo. 7. Yaponiya. 12. Ot. 13. Toshkent. 14. Tet. 17. Mushak. 18. Sutka. 19. Alyaska. 20. Adashbo'yoq. Zanjir holdida: 8. Braziliya. 9. Asr. 10. Raqs. 11. Sovg'a.

20-yanvar 2014



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Bosh muharrir Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Omonulla YUNUSOV, Abduq'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir Sayyora QODIROVA Rassom Feruz MATYOQUBOV Dizayner Olovuddin ORIPOV

Manzillimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shaki A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 4919 Buyurtma N: J 8990